

AYOLLAR TADBIRKORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI BAHOLASH

Ismoilova Savinoz Qahramon qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

noz98.98@gmail.com

<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0000-0002-2166-0265>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi va ularni baholash mezonlari asosida ilmiy asoslangan yondashuvlar taklif etiladi. Tadqiqotda ijtimoiy-iqtisodiy, institutsional, moliyaviy, ta'lim va madaniy omillar alohida yoritilib, har bir omilning ayollar tadbirkorlik faoliyatiga ko'rsatayotgan ta'siri ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Shuningdek, maqolada mazkur omillarning o'zaro bog'liqligi, hududiy farqlari va barqaror tadbirkorlikni ta'minlashdagi roli kompleks yondoshuv orqali o'r ganiladi. Tahlil natijalari ayollar tadbirkorligini rag'batlantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: ayollar tadbirkorligi, gender tengligi, tadbirkorlik faoliyati, iqtisodiy imkoniyatlar, ta'sir etuvchi omillar, ijtimoiy omillar, moliyaviy resurslar, ta'lim va malaka, madaniy chekllovlar, huquqiy baza, infratuzilma, bozorga chiqish imkoniyatlari, davlat qo'llab-quvvatlovi, kichik biznes, xususiy sektor, ayollar uchun kreditlash, ta'lim darajasi, tadbirkorlik muhit, xonardon iqtisodiyoti, ayollar bandligi, biznesni boshlash to'siglari, ayollar imkoniyatlarini kengaytirish.

I.KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida ayollarning tadbirkorlikdagi ishtiroki muhim ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayollar tadbirkorligi nafaqat mamlakat iqtisodiy o'sishiga, balki aholi bandligini oshirish, kambag'allikni kamaytirish, ijtimoiyadolat va gender tengligini ta'minlashga ham ulkan hissa qo'shamdi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham, ayollar tadbirkorligini rag'batlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ayollar tadbirkorligining rivojlanish sur'ati va samaradorligi turli omillar ta'sirida shakllanadi. Jumladan, moliyaviy resurslarga yetarli darajada kirish imkoniyati, huquqiy va institutsional muhit, ta'lim va malaka darajasi, ijtimoiy-farovonlik holati, madaniy qadriyatlar, bozor infratuzilmasi, oilaviy mas'uliyatlar kabi ko'plab omillar ayollarning biznes boshlashi va uni yuritishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Bu omillar o'zaro bog'liq bo'lib, ayollarning tadbirkorlikda faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratilishi yoki aksincha, to'siqlar paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, ayollar tadbirkorligiga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy asosda aniqlash va ularning ta'sir darajasini baholash dolzarb hisoblanadi. Mazkur masala nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Chunki, ayollarni tadbirkorlikka jalb etishga qaratilgan samarali siyosatni ishlab chiqish, ular uchun qulay biznes muhitini yaratish, to'siqlarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash faqatgina omillar to'g'ri baholanganda amalgalashadi.

Ushbu maqolada ayollar tadbirkorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimli ravishda tahlil qilinadi hamda ularni baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Shuningdek,

sohada mavjud muammolar, hududiy farqlar va istiqbolli yechimlar ham yoritib beriladi.

II. ADABIYOTLAR SHARHI

Ayollar tadbirkorligining rivojlanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, bu sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar turli fanlar iqtisodiyot, sotsiologiya, menejment, psixologiya va gendershunoslik nuqtai nazaridan yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu bo‘limda ayollar tadbirkorligiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rgangan mahalliy va xorijiy olimlar, shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinadi. Ayollar tadbirkorligi mavzusi rivojlangan davlatlarda uzoq yillardan buyon ilmiy tahlil etib kelinmoqda. Jumladan, Candida G. Brush, Linda F. Edelman, Patricia Greene kabi olimlar ayollar tadbirkorligidagi moliyaviy to‘siqlar, biznes muhitidagi tengsizlik, venchur kapitalga kirish muammolari kabi omillarni chuqur o‘rgangan. Ularning fikricha, ayol tadbirkorlar erkaklarga nisbatan kamroq investitsiya oladi va aksariyat hollarda kichik masshtabdagi biznes faoliyati bilan cheklanadi.

Sara Carter (Shotlandiya) tadqiqotlarida ayollar tomonidan ochilgan korxonalarining moliyaviy modellari, huquqiy to‘siqlar, ta’lim va malaka darajasi, oilaviy majburiyatlar kabi omillar keng qamrovda tahlil qilingan. Uning ta’kidlashicha, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun maxsus strategiyalar va targetlangan siyosatlar talab etiladi.

GEM (Global Entrepreneurship Monitor) loyihasi doirasida Donna Kelley, Niels Bosma, María Minniti kabi olimlar dunyo mamlakatlarida ayollar tadbirkorligining darajasi, uni rag‘batlantiruvchi va to‘suvchi omillar, shuningdek, ijtimoiy me’yor va madaniy an’analarning ta’sirini tahlil qilgan. 2020/21 yilgi hisobotlarida pandemiya davrida ham ayollar tadbirkorligining barqarorligi, xususiy salohiyati va ijtimoiy mas’uliyati alohida ta’kidlangan[1].

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ayollar tadbirkorligiga oid tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Jumladan, G.M.Ganieva o‘zining ilmiy ishlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda davlat siyosati, qonunchilik bazasi va moliyaviy qo’llab-quvvatlash mexanizmlarining o‘rnini tahlil qilgan. Uning fikricha, ayollar tadbirkorligi barqaror rivojlanishi uchun maxsus imtiyozlar, imtiyozli kreditlar va ta’lim dasturlari joriy qilinishi zarur. M.X.Yunusova qishloq joylardagi ayollar tadbirkorligi xususiyatlarini o‘rganib, madaniy chekllovlar, ijtimoiy stereotiplar va infratuzilma yetishmasligini asosiy to‘siqlar sifatida ko‘rsatgan. G.Qarshieva, Z.Toshmatova, D. Sidiqova kabi tadqiqotchilar esa ayollarning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini, bank kreditlariga ega bo‘lishdagi muammolarni, imtiyozli moliyalashtirish dasturlarining samaradorligini o‘rgangan[2]. Ularning ishlarida tadbirkor ayollarning biznes yuritishdagi amaliy muammolari real misollar orqali yoritilgan. Shu bilan birga, Oliy ta’lim muassasalari olimlari tomonidan ayollarning kasbiy malakasi, ta’lim darajasi, biznes ko‘nikmalarini va bozor sharoitidagi raqobatbardoshligi masalalari ham o‘rganib kelinmoqda.

Ayollar tadbirkorligi masalasi bo‘yicha qator xalqaro tashkilotlar ham muntazam tahlillar olib bormoqda. Jumladan, UN Women gender tengligi va ayollar iqtisodiy

imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha hisobotlarda, tadbirkor ayollarni rag'batlantirish uchun qonunchilik, ta'lim, moliya va raqamli texnologiyalarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi qayd etilgan. World Bank "Gender Assessment Report for Uzbekistan" hisobotida O'zbekistonda ayollar tadbirkorligining imkoniyatlari va muammolari chuqur tahlil qilingan[3]. Asia Development Bank (ADB) tomonidan e'lon qilingan "Women Entrepreneurs in Uzbekistan" hisobotida ayollarning biznes sohasidagi ishtiroki, moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlari, davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va hududiy farqlar xususida keng ma'lumot berilgan. OECD gender tengligi indeksi orqali ayollar tadbirkorligidagi makroiqtisodiy sharoitlar va siyosiy islohotlarni baholaydi[4].

Umuman olganda ayollar tadbirkorligiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadi, ushbu masaladagi tadqiqotlar ko'p tarmoqli va ko'p omilli bo'lib, har bir omilni alohida emas, balki tizimli yondashuvda o'rghanish talab etiladi. Shu sababli, maqolaning keyingi bo'limlarida ayollar tadbirkorligiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholash usullari ham yoritilishi maqsadga muvofiqdir.

III. NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqotlar ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar o'zaro bog'liq va ko'pqirrali ekanligini ko'rsatdi(1-jadval). Mazkur omillar tahlili shartli ravishda 7 ta asosiy toifaga guruhlandi:

1-jadval.

Ayollar tadbirkorli faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar

Nº	Ta'sir etuvchi omillar	Toifasi
Ichki omillar		
1.	Bilim va malaka darajasi	Ta'lim
2.	Moliyaviy savodxonlik	Ta'lim/Iqtisodiy
3.	Tadbirkorlik tajribasi	Boshqaruva
4.	Biznes boshqarushi tajribasi	Boshqaruva
5.	Shaxsiy fazilatlar (liderlik, qat'iyat, stressga chidamlilik)	Psixologik
6.	Motivatsiya va psixologik holat	Psixologik
7.	Ko'nikmalar va innovatsion fikrlash	Innovatsion
8.	Innovatsion yondashuv va moslashuvchanlik	Innovatsion
9.	Kasbiy yo'nalish va motivatsiya	Kasbiy
10.	Oilaviy majburiyatlar	Ijtimoiy
11.	Ijtimoiy kapital (aloqalar, networking)	Ijtimoiy
12.	Tadbirkorlik madaniyati va qadriyatlari (individual motivatsiya)	Madaniy
13.	Yosh va ma'lumot darajasi	Demografik
Tashqi omillar		
1.	Moliyaviy resurslarga ega bo'lish (kredit, grant)	Iqtisodiy
2.	Bozordagi talab va taklif	Bozor
3.	Aholining daromad darajasi	Iqtisodiy
4.	Aholining yashash tarzi va qadriyatlari (ijtimoiy stereotiplar)	Madaniy
5.	Mahsulot va xizmatlarning innovatsionligi	Bozor
6.	Hududiy infratuzilma	Infratuzilma
7.	Mahalliy xomashyo resurslari	Infratuzilma
8.	Hududiy mehnat bozoriga moslashuv	Mehnat bozori
9.	Hududiy kooperatsiya imkoniyatlari	Hamkorlik
10.	Tadbirkorlik faoliyatining ixtisoslashuvi (soha bo'yicha)	Bozor

11.	Mahalliy iqtisodiy tarmoq va klasterlar	Tarmoq
12.	Mintaqaviy savdo va eksport imkoniyatlari	Tashqi iqtisod
13.	Ixtisoslashgan ishlab chiqarish va xizmat tarmoqlari	Tarmoq
14.	Hududiy iqtisodiy barqarorlik	Makroiqtisod
15.	Soliq va kredit siyosati	Institutsional
16.	Ekologik talablar va barqaror biznes	Atrof-muhit
17.	Ijtimoiy tarmoqlardagi raqobat	Raqamli texnologiya
18.	Mahalliy hukumat va qo'llab-quvvatlash dasturlari	Davlat siyosati
19.	Transport va logistika imkoniyatlari	Infratuzilma
20.	Xalqaro hamkorlik va investitsiyalar	Tashqi iqtisod
21.	Demografik omillar (aholi soni, urbanizatsiya)	Demografik
22.	Ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash	Inson kapitali
23.	Tashqi siyosiy va iqtisodiy holatlar	Geoijqtisodiy
24.	Texnologik rivojlanish darajasi	Innovatsiya
25.	Mehnat bozori va ishchi kuchi sifati	Inson kapitali
26.	Madaniy va diniy qadriyatlar (mahalliy)	Madaniy
27.	Tashqi bozorlarga chiqish imkoniyati	Savdo/tashqi iqtisod

1.Ta'lim, bilim va innovatsion qobiliyatlar. Ayollar tadbirkorligining muvaffaqiyatli rivojlanishi, birinchi navbatda, ularning yetarli darajadagi bilim, kasbiy malaka va zamonaviy bozor talablariga mos keluvchi innovatsion fikrlash qobiliyatiga bog'liq. Bu omillar tadbirkorlik faoliyatining har bir bosqichida ayollar tomonidan to'g'ri qarorlar qabul qilinishi, samarali boshqaruv va barqaror biznes yuritishiga zamin yaratadi.

Kasbiy bilim va malaka darajasi ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga tayyorgarlik darajasini belgilaydi. Biznesni tashkil etish, marketing strategiyasini ishlab chiqish, moliyaviy hisob-kitobni yuritish, mijozlar bilan aloqalarni shakllantirish kabi ko'nigmalar ayollarning boshlang'ich bosqichda samarali harakat qilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi[5].

Moliyaviy savodxonlik esa tadbirkorlikning barqarorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Moliyaviy rejlashtirish, xarajat va daromadlarni hisoblash, kreditlar, investitsiya manbalari va soliq majburiyatlarini anglash ayollarning biznesda moliyaviy xatarlarni kamaytirish qobiliyatini oshiradi. Bu sohada yetarli bilimga ega bo'limgan ayollar moliyaviy xatolarga yo'l qo'yib, biznes muvaffaqiyatiga jiddiy tahdid solishlari mumkin.

Innovatsion fikrlash va amaliy ko'nigmalar ayollarga bozorda ajralib turish, raqobatbardosh mahsulot yoki xizmatlar yaratish va yangi g'oyalarni ilgari surish imkonini beradi. Ijodiy yondashuv, muammolarni standart yechimlarsiz hal etish qobiliyati tadbirkorlikdagi muvaffaqiyatning muhim omilidir.

Innovatsion yondashuv va moslashuvchanlik esa bozor sharoitidagi o'zgarishlarga tezkor munosabat bildirish, yangi texnologiyalar va biznes modellarini o'zlashtirish orqali biznes faoliyatini muvofiqlashtirish imkonini yaratadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, onlayn savdo platformalari va elektron boshqaruv tizimlarini

joriy qilish bugungi bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlovchi muhim shart hisoblanadi[6].

Umuman olganda, ta'lim va innovatsion qobiliyatlar ayollarning tadbirkorlik faoliyatida ishonchli harakat qilishi, barqarorlikni ta'minlashi va bozorda o'z o'mini mustahkamlashi uchun asosiy omillardan hisoblanadi.

2. Shaxsiy, ruhiy va ijtimoiy kapital bilan bog'liq omillar. Ayollar tadbirkorligining muvaffaqiyatlari rivojlanishida shaxsiy fazilatlar, ruhiy tayyorgarlik va ijtimoiy kapital muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik faoliyati nafaqat bilim va moliyaviy resurslarga, balki shaxsning ichki potensialiga ham tayanadi. Ayniqsa, ayollar uchun o'zini iqtisodiy faol sub'ekt sifatida namoyon etishda shaxsiy motivatsiya va ijtimoiy muhitning qo'llab-quvvatlovi hal qiluvchi omillardan hisoblanadi[7].

Motivatsiya va psixologik omillar ayollarning tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan qiziqishi, shaxsiy muvaffaqiyatga intilishi, o'z-o'ziga ishonchi va tavakkalchilikka tayyorligini qamrab oladi. Ijobiy ruhiy holat, oldinga intilish va o'z salohiyatiga ishonish ayollarni biznesdagi faolligi va barqarorligini ta'minlovchi asosiy drayverlardan biridir.

Shaxsiy fazilatlar - liderlik qobiliyati, qat'iyat, tashabbuskorlik, muoshiratga kirishuvchanlik va stressga chidamlilik ayollarning biznesdagi murakkab vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilishiga va muvaffaqiyatlari boshqaruvni amalga oshirishga imkon yaratadi. Bu fazilatlar ayniqsa yuqori raqobatbardosh muhitda muhim o'rinni tutadi.

Tadbirkorlik madaniyati va qadriyatlari – ayollarning tadbirkorlikka nisbatan munosabati, o'zini mustaqil iqtisodiy sub'ekt sifatida anglashi, innovatsiya va yangiliklarga ochiqligi, tavakkal qilishga bo'lgan tayyorligi tadbirkorlik faoliyatida samaradorlikni belgilaydi. Bunday qadriyatlarning shakllanishi uchun jamiyatda ijobiy madaniy muhit va targ'ibot ham muhimdir.

Ijtimoiy kapital – ayollarning jamoa va mijozlar bilan munosabat o'rnatishtirilishi, hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ya olishi, ijtimoiy tarmoqlarda faolligi orqali ishonchli biznes muhitini yaratishi mumkin. Tarmoqlanish va ijtimoiy aloqalarning rivojlanganligi ayollar biznesining kengayishiga va barqarorlashishiga hissa qo'shadi.

Umuman olganda, shaxsiy, ruhiy va ijtimoiy omillar ayollarning tadbirkorlikda faol ishtirokini rag'batlantiradi, xatarlarga qarshi bardoshli bo'lishini ta'minlaydi va ularning bozorda muvaffaqiyat qozonishiga zamin yaratadi.

3. Moliyaviy va iqtisodiy omillar. Ayollar tadbirkorligining rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri ularning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari va faoliyat yuritilayotgan iqtisodiy muhitga bog'liq. Moliya va iqtisod sohalaridagi cheklar ko'pincha ayollarning biznes boshlash yoki uni kengaytirishdagi asosiy to'siqlardan biri sifatida namoyon bo'ladi[8].

Moliyaviy resurslarga ega bo'lish – ayol tadbirkorlarning shaxsiy kapitali yetarli bo'lmasan holatda, ularning biznes yuritish imkoniyatlari keskin cheklanadi. Bu esa ko'p hollarda tashqi moliyalashtirish manbalari — bank kreditlari, investitsiyalar va davlat yoki nodavlat grantlariga bo'lgan talabni oshiradi. Ammo bu resurslarga

kirishdagi murakkab shartlar va talablar ko‘p ayollarni ushbu imkoniyatlardan to‘liq foydalana olmaslikka olib keladi.

Mahsulot va xizmatlarning innovatsionligi – bozorda muvaffaqiyat qozonish uchun mahsulot yoki xizmatlar raqobatbardosh va talabga mos bo‘lishi zarur. Ayollar tomonidan ishlab chiqarilayotgan innovatsion, afzallikka ega mahsulotlar nafaqat daromad manbai, balki bozordagi barqaror mavqeni ta’minlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Bozordagi talab va taklif muvozanati ayollar tadbirkorligining faoliyat sohasini tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Quyi talabli yoki to‘yingan segmentlarga kiradigan bizneslar ko‘pincha yuqori raqobat yoki past foydalilikka duch keladi. Binobarin, bozordagi yetishmayotgan yoki yangi shakllanayotgan ehtiyojlarga javob beradigan sohalarda faoliyat yuritish samaradorlikni oshiradi.

Aholining daromad darajasi ham tadbirkorlikning iqtisodiy samarasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xarid qobiliyati past bo‘lgan hududlarda mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talab cheklangan bo‘lib, bu aylanma mablag‘ning sekin aylanishiga va biznes faoliyatining barqaror bo‘lmashligiga olib keladi. Aksincha, daromadlari yuqori bo‘lgan hududlarda bozor salohiyati keng bo‘lib, ayollar biznesining o‘sish imkoniyatlari yuqori bo‘ladi.

Umuman, ayollar tadbirkorligida moliyaviy va iqtisodiy omillarning to‘g‘ri baholanishi va samarali boshqarilishi faoliyatning barqarorligini ta’minlaydi hamda yangi istiqbollarni amalga oshirish uchun zarur asos bo‘lib xizmat qiladi.

4. Tashkiliy va boshqaruvchilik qobiliyati. Ayollar tadbirkorligining samarali rivojlanishida tashkiliy salohiyat, boshqaruv tajribasi va strategik fikrlash muhim o‘rin tutadi. Biznesni to‘g‘ri tashkil qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqaruv jarayonlarini tizimlashtirish ayollar rahbarligidagi tadbirkorlik sub’ektlarining barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardandir[9].

Biznes boshqaruvi tajribasi – ayollar avval boshqaruv lavozimlarida ishlagan yoki tadbirkorlik sub’ektlarida faol ishtirok etgan holda yetarli malaka to‘plagan bo‘lsalar, ular qaror qabul qilish, resurslarni samarali taqsimlash va raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanishda yuqori natijalar ko‘rsatishi mumkin. Bu esa biznes faoliyatida barqarorlik va tejamkorlikni ta’minlaydi.

Tadbirkorlik tajribasi – avval tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan, muvaffaqiyatlari yoki muvaffaqiyatsiz bizneslarni boshqargan ayollar, yangi loyihalarda tez qaror qabul qilish, xatolarni oldindan ko‘ra bilish va ehtimoliy xavf-xatarlarni baholashda katta afzallikka ega bo‘ladi. Bunday tajriba ularga raqobat muhitida o‘z o‘rnini mustahkamlash imkonini yaratadi.

Tadbirkorlik faoliyatining ixtisoslashuvi – ayollar tomonidan tanlangan soha (xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, IT va h.k.) biznes modelining turi, mablag‘ aylanmasi, marketing strategiyasi va tarmoq aloqalariga bevosita ta’sir qiladi. Bozordagi ehtiyoj va raqobat darajasiga muvofiq sohani tanlash faoliyat samaradorligini belgilaydi.

Kasbiy yo‘nalish va motivatsiya – ayollar o‘z qobiliyatlari, kasbiy tajribalari va qiziqishlariga mos keluvchi sohani tanlangan holda faoliyat yuritsalar, ularning ishga bo‘lgan ijobjiy munosabati, mas’uliyat hissi va doimiy rivojlanishga intilishi ortishi

mumkin. Bu esa ularning biznesini mustahkam va uzoq muddatli rivojlanishga yetaklaydi.

Xulosa qilib aytganda, tashkiliy va boshqaruvchilik qobiliyati yuqori bo‘lgan ayol tadbirkorlar biznesni to‘g‘ri yo‘naltirish, samarali boshqarish va strategik qarorlar qabul qilishda ustunlikka ega bo‘lib, ularning faoliyatida barqaror o‘sish ta’milanadi.

5. Infratuzilmaviy va bozor sharoitlari. Ayollar tadbirkorligining rivojlanishida hududiy infratuzilma va bozor sharoitlari muhim tashqi muhit omillari sifatida alohida o‘rin tutadi. Zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi, resurslarga yetish imkoniyati, logistika tarmoqlarining rivojlanganligi va mehnat bozorining faolligi ayollar tomonidan yuritilayotgan biznes faoliyati samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Hududiy infratuzilma – transport, aloqa, internet, savdo va biznes markazlari kabi infratuzilma ob’ektlarining mavjudligi va ulardan samarali foydalanish imkoniyati ayollar tadbirkorligining jadal rivojlanishiga xizmat qiladi. Infratuzilma rivoji mahsulotlar yetkazib berish, xizmat ko‘rsatish va mijozlarga yetishni osonlashtiradi, bu esa faoliyat geografiyasini kengaytirishga imkon beradi.

Mahalliy xomashyo resurslari – ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkor ayollar uchun xomashyoning mahalliy manbalardan ta’milanishi xarajatlarni kamaytirish va ta’minot zanjirini qisqartirish orqali samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bunda resurslarga yaqin joylashish logistika xarajatlarini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Hududiy kooperatsiya imkoniyatlari – mahalliy tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasidagi hamkorlik, kooperatsiya va klaster shaklidagi aloqalar ayollar biznesining faoliyatini diversifikatsiya qilish, innovatsion yechimlarni tatbiq etish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun qulay sharoit yaratadi. Klasterlar doirasidagi qo‘silgan qiymat zanjirlari ayollar tadbirkorligini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin[10].

Hududiy mehnat bozoriga moslashuv – mahalliy mehnat bozoridagi ishchi kuchi, kasbiy malakali kadrlar va xizmat ko‘rsatish talablari ayollar tadbirkorligining qaysi sohalarda shakllanishi va rivojlanishini belgilab beradi. Aholi salohiyatiga muvofiq ravishda xizmat yoki ishlab chiqarish turlarini tanlash orqali bozor ehtiyojini to‘liq qoplash mumkin bo‘ladi.

Umuman olganda, infratuzilmaviy va bozor muhiti qanchalik rivojangan bo‘lsa, ayollar tadbirkorligi ham shunchalik samarali faoliyat yuritishi, bozorda barqaror o‘rin egallashi va miqyosini kengaytirishi mumkin. Shu bois, mahalliy sharoitlarni baholash va ulardan to‘g‘ri foydalanish ayollar tadbirkorligi strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

6. Ijtimoiy, madaniy va demografik omillar. Ayollar tadbirkorligining rivojiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri - jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, madaniy an’analari va demografik xususiyatlar hisoblanadi. Bu omillar ayniqsa ayollarning biznes faoliyatini boshlashi, rivojlantirishi va barqarorlashtirishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi[11].

Oilaviy majburiyatlar - ayollar ko‘pincha oilaviy vazifalar, bolalarga qarash, qarindoshlarga g‘amxo‘rlik qilish kabi ijtimoiy yuklamalarni ham zimmasiga oladi. Bu holat, ayniqsa, qishloq joylaridagi ayollar uchun tadbirkorlik faoliyatiga ajratiladigan

vaqt va resurslarni cheklab qo‘yadi. Shu bois, oila va ish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash ayollar uchun muhim vazifalardan biridir.

Aholining yashash tarzi va qadriyatları - jamiyatdagi an'anaviylik darajasi, genderga oid stereotiplar, madaniy cheklar ayollarning tadbirkorlikdagi ishtirokini belgilab beradi. Masalan, ayrim hududlarda tadbirkorlikni faqat erkaklarga xos faoliyat deb bilish holatlari ayollarning faolligini pasaytiradi. Shu bilan birga, biznesga nisbatan ijobjiy munosabat shakllangan hududlarda ayollar tadbirkorligi yanada keng rivojlanadi.

Demografik omillar - aholi soni, uning yosh tarkibi, urbanizatsiya darajasi, ishga layoqatli qatlam ulushi kabi demografik ko‘rsatkichlar tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, yosh va ishbilarmon aholi ulushi yuqori bo‘lgan hududlarda bozor ehtiyoji va iste’mol salohiyati yuqori bo‘lib, bu tadbirkorlik faoliyati uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.

Umuman aytganda, ijtimoiy-madaniy muhit va demografik holat ayollarning iqtisodiy faolligiga turli shakllarda ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillarni to‘g‘ri baholab, maqbul siyosat va qo‘llab-quvvatlash choralarini ko‘rish ayollar tadbirkorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

7. Tashqi muhit va institutsional omillar. Ayollar tadbirkorligining barqaror va tizimli rivojlanishida tashqi muhit va institutsional omillar muhim rol o‘ynaydi. Bu turdagи omillar ayollarning biznes faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi yoki aksincha, cheklovchi ta’sir ko‘rsatishi mumkin[12].

Soliq va kredit siyosati - tadbirkorlikni rag‘batlantiruvchi fiskal siyosat, imtiyozli kreditlar, kam foizli moliyalashtirish mexanizmlari mavjudligi ayollarning o‘z biznesini tashkil etishi va kengaytirishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Hozirgi kunda bir qator hududlarda maxsus grantlar, subsidiyalar va soliq imtiyozlari ayollar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirmoqda.

Mahalliy hukumat va biznes qo‘llab-quvvatlovi - davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan ta’limiy dasturlar, biznes-inkubatorlar, maslahat markazlari hamda ayol tadbirkorlar uchun maxsus forum va yarmarkalar ularning bilim va salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, hududiy hokimiyat organlari tomonidan yaratilgan dasturlar ayollar tadbirkorligiga siyosiy va iqtisodiy iktidor beradi.

Mintaqaviy savdo va eksport imkoniyatlari - tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari ayollar biznesini yangi darajaga olib chiqadi. Ayniqsa, eksportbop mahsulot ishlab chiqarayotgan ayollar o‘z daromadini diversifikatsiya qilish, yangi mijozlar bazasini shakllantirish va global raqobatda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Texnologik rivojlanish darajasi - raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, onlayn savdo platformalari, elektron to‘lov tizimlari va raqamli marketing vositalarining keng qo‘llanilishi ayollarga masofadan turib biznes yuritish imkoniyatini taqdim etmoqda. Bu ayniqsa oilaviy majburiyatlari yuqori bo‘lgan ayollar uchun qulay hisoblanadi.

Tashqi siyosiy va iqtisodiy holatlar - mamlakatdagi umumiy makroiqtisodiy barqarorlik, inflayatsiya darajasi, valyuta kurslarining dinamikasi, hamda geosiyosiy vaziyat ayollar tadbirkorligiga bevosita ta’sir qiladi. Xavf darajasi yuqori bo‘lgan

muhitda tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish yoki uni barqaror saqlash qiyin kechadi[13].

Umuman aytganda, tashqi muhit va institutsional omillar ayollar tadbirkorligini rag‘batlantirishda asosiy drayver vazifasini bajaradi. Mazkur omillar yuzasidan samarali siyosat va manzilli dasturlar ishlab chiqilishi ayollar tadbirkorligining rivojlanishiga uzoq muddatli ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

IV.MUXOKAMA

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish hozirgi kunda iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tenglik va innovatsion taraqqiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ammo bu yo‘nalishda muvaffaqiyatga erishish ko‘plab omillarning o‘zaro uyg‘unligi va ularga berilgan baholarga bog‘liqdir. Ayollar tadbirkorligiga ta’sir etuvchi omillar ko‘p qirrali bo‘lib, ularning qaysi biri ustuvor ahamiyatga ega ekanligini aniqlash samarali siyosat va dasturlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda aynan shunday masalani hal qilishda TOPSIS (Technique for Order Preference by Similarity to Ideal Solution) usulidan foydalilanildi[14].

TOPSIS maqsadli qaror qabul qilish usullaridan biri bo‘lib, alternativalarini eng ideal va eng yomon holatlarga nisbatan yaqinligi asosida baholaydi. Ushbu usul quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- Qaror matritsasini tuzish: Ayollar tadbirkorligiga ta’sir etuvchi omillar ustunlarda, ularning ekspertlar tomonidan baholangan ko‘rsatkichlari esa qatorlarda joylashtiriladi;
- normallashtirilgan matritsanı hisoblash: Har bir qiymatning kvadratlar yig‘indisidan ildiz orqali olinadigan normallashtirilgan qiymatlar aniqlanadi.
- og‘irlilik koeffitsiyentlarini hisobga olgan holda og‘irlashtirilgan matritsa tuziladi. Og‘irliklar ekspert baholariga asoslanadi yoki Entropiya usuli orqali aniqlanishi mumkin.
- ideal va anti-ideal yechimlar aniqlanadi: Har bir omil uchun eng yaxshi (ideal) va eng yomon (anti-ideal) qiymatlar tanlanadi.
- har bir alternativa uchun ideal va anti-ideal nuqtalarga bo‘lgan masofalar hisoblanadi.
- har bir alternativa uchun yaqinlik koeffitsiyenti (C^*) hisoblanadi. Bu qiymat 0 dan 1 gacha bo‘lgan oraliqda bo‘ladi va qiymat qancha katta bo‘lsa, omilning muhimligi shuncha yuqori bo‘ladi.

Navbatdagi jarayon ayollar tadbirkorligiga ta’sir etuvchi 40 ta omilni TOPSIS orqali baholash bosqichlari. Bunda tadqiqotda ichki va tashqi omillardan iborat jami 40 ta omil tanlab olindi. Ular quyidagi toifalarda jamlangan: ta’lim va bilim darajasi (5 omil), moliya va iqtisodiyot (7 omil), psixologik va ijtimoiy kapital (6 omil), boshqaruv va tajriba (5 omil), infratuzilma va hududiy imkoniyatlar (6 omil), bozor va iqtisodiy muhit (6 omil) va davlat siyosati va tashqi omillar (5 omil).

Shundan so‘ng ekspert baholari 40 ta omilga 10 nafar ekspert tomonidan 1 dan 9 gacha bo‘lgan Likert shkalasi asosida baholar berildi. Baholar mutaxassislik, amaliy tajriba va akademik bilim asosida tanlangan ekspertlar tomonidan amalga oshirildi.

Navbatdagi bosqich vazn ulushini aniqlash. Har bir omilga mos vazn koeffitsiyenti Entropiya usuli orqali aniqlandi, bunda ko‘rsatkichlarning farqlanish

darajasi inobatga olindi. Natijada har bir omil o‘zining individual ahamiyatiga ega bo‘ldi. Baholash bosqichida “ta’siri yuqori” va “ta’siri past” qiymatlar normallashtirilgan matritsaga asoslangan holda baholandi.

TOPSIS usuli asosida aniqlangan ahamiyatlilik ko‘rsatkichlariga (C*) ko‘ra, quyidagi 10 ta omil eng muhim hisoblandi:

Nº	O‘rin	Omil nomi	C* qiymati
1	1	Moliyaviy resurslarga ega bo‘lish	0.892
2	2	Bilim va malaka darajasi	0.876
3	3	Innovatsion yondashuv	0.858
4	4	Biznes boshqaruvi tajribasi	0.842
5	5	Ijtimoiy kapital	0.837
6	6	Mahalliy hukumat ko‘maginev mavjudligi	0.828
7	7	Kasbiy yo‘nalish va motivatsiya	0.819
8	8	Hududiy infratuzilma	0.813
9	9	Tashqi siyosiy va iqtisodiy barqarorlik	0.805
10	10	Bozordagi talab va taklif muvozanati	0.801

TOPSIS usuli orqali ayollar tadbirkorligiga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha ilmiy asoslangan ahamiyatlilik darajalari aniqlandi. Ushbu baholash natijalariga asosan:

Davlat siyosatini moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirishga yo‘naltirish;

Tadbirkor ayollar uchun ta’lim va innovatsion treninglar sonini ko‘paytirish;

Biznes boshqaruvi va raqamli savodxonlik bo‘yicha keng qamrovli dasturlarni joriy qilish;

Ijtimoiy va davlat tashkilotlari tomonidan tarmoqlashgan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish kabi takliflar ishlab chiqildi. TOPSIS natijalarini asosida tartiblangan ustuvor omillar ayollar tadbirkorligini barqaror rivojlantirishda aniq manzilli chora-tadbirlarni belgilashga yordam beradi.

V.XULOSALAR

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni kompleks baholash natijalari shundan dalolat berdiki, bu sohadagi muvaffaqiyat turli yo‘nalishlar — ta’lim va bilim darajasi, moliyaviy resurslarga kirish, shaxsiy fazilatlar, infratuzilma, davlat siyosati, bozor kon'yunkturasi va tashqi muhit omillari bilan chambarchas bog‘liq.

Tadqiqot davomida mazkur omillar ichki va tashqi, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy va infratuzilmaviy toifalarga bo‘lingan holda tahlil qilindi. Ularning ayollar tadbirkorligiga ta’sir darajasi aniq mezonlar asosida o‘lchovli shaklda baholandi. Aniqlandiki:

- ta’lim va moliyaviy savodxonlik omillari ayollar tadbirkorligining boshlang‘ich va o‘sish bosqichida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

- moliyaviy resurslarga kirish, davlat dastaklari va bozor talablari esa ayollar biznesini kengaytirish va barqarorlashtirishda asosiy tashqi omillar hisoblanadi.

- shaxsiy motivatsiya, ijtimoiy kapital va tadbirkorlik madaniyati biznesning uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

- hududiy infratuzilma va kooperatsiya imkoniyatlari ko‘pincha mahalliy darajadagi o‘sishni tezlashtiradi.

Baholash natijalariga ko‘ra, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda omillar o‘zaro bog‘liqlikda va tizimli yondashuv asosida baholanishi lozim. Bu esa faqat alohida chora-tadbirlar bilan emas, balki keng qamrovli strategik dasturlar va miqdoriy baholash instrumentlari orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq ekanini ko‘rsatdi. Shuningdek, har bir omilning ta’sir darajasini aniqlash orqali davlat siyosatini maqsadli yo‘naltirish, resurslarni manzilli taqsimlash va ayollar tadbirkorligini tarmoqlar kesimida rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. GIZ Uzbekistan. Gender and Economic Empowerment Report. – Tashkent: GIZ Publishing, 2020. – 72 p.
2. Nazarov, Sh. Ayollar tadbirkorligining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari. – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2022. – 224 b.
3. World Bank. Uzbekistan: Creating Markets by Supporting Women Entrepreneurs. – Washington, D.C., 2021. – 89 p.
4. Asian Development Bank. Women Entrepreneurs in Uzbekistan: Key Constraints and Policy Solutions. – Manila: ADB, 2020. – 58 p.
5. Zufarov, M.B. Iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati. – T.: “Fan va texnologiya”, 2020. – 310 b.
6. Karimova, N. Women Entrepreneurship in Uzbekistan: Challenges and Opportunities // Central Asian Journal of Economic Review. – 2023. – №2. – B. 45–58.
7. Ganieva, G. Factors Influencing Women’s Entrepreneurship Development in Transition Economies: A Case Study of Uzbekistan // International Journal of Entrepreneurship and Small Business. – 2021. – Vol. 44, No. 1. – P. 59–74.
8. Sharipova, L.M. Gender va iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. – T.: “IQTISODIYOT”, 2021. – 186 b.
9. Otaxonova, Sh. Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashda davlat siyosatining o‘rni // Ilmiy-tahliliy jurnal “Iqtisodiy taraqqiyot”. – 2022. – №3. – B. 112–118.
10. Mustafoeva, D. Ayollar tadbirkorligi va uning mintaqaviy rivojlanish xususiyatlari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnal. – 2023. – №4. – B. 25–33.
11. OECD. Strengthening Women’s Entrepreneurship in Central Asia. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 98 p.
12. Mahkamova, N. Ayollarning kichik biznesdagi ishtiroki va uni rivojlantirish yo‘nalishlari // “Taraqqiyot strategiyasi” ilmiy jurnal. – 2022. – №1. – B. 40–48.
13. Islamov, B. & Yusupov, Y. Inclusive Economic Growth and Women’s Entrepreneurship in Uzbekistan // Institute for Forecasting and Macroeconomic Research. – Tashkent, 2021. – Research Paper No. 12. – P. 1–26.
14. Nazarova, U. Ayollar tadbirkorligining huquqiy-tashkiliy mexanizmlari // “Moliya va iqtisodiyot” jurnal. – 2022. – №2. – B. 80–86.